



TISHUNOSLIKDA GIPONIMIYA HODISASI

Mamnazarova Dilobar Akbarovna

Mustaqil tadqiqotchi

e-mail: mamanazarovadilobar@gmail.com

telefon: +998971551709

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tili leksikasining tizimiy tuzilishi va tarkibi, unda terminlar tizimining o'rni va tuzilishi yuzasidan fikr yuritiladi. O'zbek tili leksik sathi va uning tarkibi, tashkil etuvchi birliklari bo'yicha amalga oshirilgan leksikologik, semasiologik, tadqiqotlarga tayangan holda, giponimiya hodisasi asosan "vijdon" giperonimining ba'zi xususiy ma'nolari tahlili asosida tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: leksik tizim, giponimik munosabat, iyerarxik qurilish, umumiy ma'no, xususiy ma'no, giponim, giperonim.

Аннотация. В статье рассматривается системная структура и состав лексики узбекского языка, место и структура терминологической системы в ней. Опираясь на лексикологические и семасиологические исследования лексического уровня узбекского языка, его состава и составляющих единиц, явление гипонимии изучалось преимущественно на основе анализа некоторых частных значений гиперонима "совесть."

Ключевые слова: лексическая система, гипонимические отношения, иерархическое построение, общее значение, частное значение, гипоним, гипероним.

Abstract. This article examines the systemic structure and composition of the Uzbek language lexicon, as well as the place and structure of its terminology system. Based on lexicological and semasiological studies of the Uzbek language's lexical level, its composition, and constituent units, the phenomenon of hyponymy was investigated primarily through the analysis of some specific meanings of the hyperonym "conscience."

Key words: lexical system, hyponymic relationship, hierarchical structure, general meaning, specific meaning, hyponym, hypernym.

Leksik semantika — so'z ma'nosini tizimli o'rganadigan tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Leksik semantika doirasida ikki asosiy masala ko'rib chiqiladi: a) so'z ma'nosining ifodalanishi, b) ma'noning kontekstga qarab ixtisoslashgan, o'zgaruvchan ma'nolarini ifodalash. Giponimiya — tilshunoslikda leksik birliklar orasidagi umumiylik va xususiylik munosabatini ifodalovchi semantik munosabat. U giponim va giperonim juftligi orqali o'z ifodasini topadi. Giponimiya so'zining o'zi yunoncha "hypo" (ostida) va "onoma" (nom) so'zlaridan kelib chiqqan, "ostidagi nom" yoki "ichidagi nom" degan ma'noni anglatadi. Tilshunoslikda giponimiya hodisasi giperonim bilan uning xos giponimi o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda uyadosh ma'no (xususiy) va uya ma'no (umumiy) orasidagi munosabat sifatida tushuniladi.

Giponimiya — umumiy va xususiy (giperonim va giponim) sema saosida shakllanadigan paradigmatic munosabat turi. Giperonom (uya) kengroq va umumiy ma'noni ifodalaydi, giponim (uyadosh) esa unga xos biror xususiy ma'noni bildiradi. Bu paradigma uyadosh va uya so'zlar orasida iyerarxik bog'lanishni tashkil etadi,



bunda giperonom umumiy tushunchani, giponim esa shu umumiy tushunchaning alohida turini ifodalaydi. Masalan, “qizil”, “sariq”, “yashil” va “ko’k” so’zlari “rang” giperonimining giponimlari hisoblanadi yoki “or”, “nomus” “sadoqat”, “mas’uliyat”, “insoniylik”, “rostgo’ylik”, “halollik”, “poklik”, “iymon”, “nafs”, “vijdon” giperonimining giponimlarini tashkil etadi. “Vijdon” giperonimining ixtisoslashgan ma’nolaridan biri “nafs” giponimi bosh ma’noni ifodalagam mazmunning asosidir. Islomiy adabiyotlarda “vijdon” tushunchasi bevosita o’zbek tilidagi kabi “vijdon” so’zi bilan emas, balki uning ma’no-mazmunini ifodalovchi boshqa arabcha atamalar orqali ilk bor Qur’oni Karim va Hadislarda tilga olingan. Keyinchalik esa ularga asoslangan holda tafsir, hadis, fiqh, kalom va tasavvuf adabiyotlarida keng yoritilgan. Qur’oni Karimda “vijdon” so’zining o’zi yo’q, lekin uning ma’nosi bilan bog’liq tushunchalar mavjud. Asosan, insonning ichki hissiyotlari, o’zini o’zi hisobga olishi, yaxshilik va yomonlikni farqlashi, qalbning pokligi kabi ma’nolarni ifodalovchi oyatlar bor. Eng yaqin ma’noni beruvchi atama “Nafsi lavvoma” (لوامة نفس) - “O’zini malomat qiluvchi nafs”, “tanbeh beruvchi nafs”. Bu tushuncha “Qiyomat” surasining 2-oyatida keladi: “Qasam ichamanki, o’zini malomat qiluvchi nafsga!” Bu nafs inson gunoh qilganida uni qoralaydi, pushaymon bo’lishga undaydi. Bu bevosita vijdon konseptining asosiy funksiyalaridan biridiradi. Ko’pgina sharq falsafasi va adabiyotida bo’lgani kabi, o’zbek tilida ham qalb insonning mohiyati, uning hissiyotlari, tafakkuri va axloqiy dunyosining markazi sifatida ko’riladi. Vijdon qalbning bir holati yoki qalb orqali namoyon bo’ladigan sifat sifatida talqin qilinadi. “Qalb” (قلب) - ko’pincha idrok markazi, his-tuyg’ular va ma’naviy anglash joyi sifatida tilga olinadi. Qur’onda qalbning pokligi, uning nurli yoki zanglagan holati vijdonning holati bilan bog’liq holda tushuniladi.

“Fitrat” - Insonning asl, toza tabiati. Qur’onda insonning Allohga bo’lgan fitratiy moyilligi, yaxshilikka intilishi haqida so’z boradi. Bu ham vijdonning tabiiy asosi sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, tasavvufda “nafs” va “qalb” tushunchalari juda keng yoritilgan. Hasan Basriy, Robia Adaviya, Junayd Bag’dodiy kabi ilk tasavvuf shayxlari va ularning asarlarida insonning o’z nafsini isloh qilishi, qalb pokligi, o’zini hisob-kitob qilish (“muhosaba”), tavba qilish kabi g’oyalar markaziy o’rin egallagan. Bu g’oyalar vijdonning faoliyatiga bevosita bog’liqdir. Kalom va fiqh adabiyotida esa to’g’ri e’tiqod va shariat hukmlariga rioya qilishda insonning ichki mas’uliyati, niyatning ahamiyati, halol va haromni farqlash zarurati ta’kidlangan. Bu esa vijdonning hukm qilish va yo’nalish berish funksiyasini anglatadi. Misol uchun, Imom G’azzoliyning “Ihyou ulumid-din” (Din ilmlarini jonlantirish) asarida inson ruhiyatining chuqur tahlili berilgan bo’lib, unda vijdonning axloqiy va ma’naviy ahamiyati, insonning o’z nafsini tergov qilishi masalasi keng yoritilgan.

Nomus inson qalbidagi butkul ehtirolarning eng ko’rkami, sevgining jonidir. Asl go’zallik – nomusda. Inson aqlining poydevori sanalgan bu tuyg’u tug’ma bo’ladi Nomus” o’zbek tilida chuqur ma’no va katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo’lgan tushunchadir. U shaxsning o’ziga bo’lgan hurmati, qadr-qimmat, izzat-nafsi hamda uning oilasining jamiyatdagi obro’si va sha’nini anglatadi. Nomusli odam o’ziga yarashmagan har qanday harakatdan, so’zdan va vaziyatdan qochadi, shu ma’noda vijdon tushunchasining xos ma’nosini ifodalab keladi. Ko’rilganidek giponimik munosabatlar tilimizning leksik boyligini ko’rsatib beradi. Giperonimlar umumiy tushunchani ifodalab, keng doiradagi ma’noni qamrab olsa, giponimlar bu umumiy tushunchaning xususiy turlarini aniqlab beradi. Bu munosabat tilning semantik tuzilishini boyitadi.

O’tgan asrning 70-yillaridan o’zbek tili leksikasini tizim sifatida o’rganishga kirishildi. Tilning leksik sathini sistemalashtirish sistema ichidagi mikrosistemalar (LMG, LSG)ni belgilash, ularning leksik tizimdagi o’rnini aniqlash, birlikmalararo leksik-semantik munosabatlarni oydinlashtirish zarurati lug’aviy sistemani mavzuviy



o‘rganish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Bu borada o‘zbek tilshunosligida H.Dadaboyev, R.Doniyorov, X.Jabborov, Y.Eshonqulov, K.Musayev, S.Sahobiddinov, A.K.Borovkov, B.O‘rinboyev, Q.Zokirov va H.Jamolxonov, K.Meliyev, B.Bafoyev, O.Qurbonov, T.Nu‘monov, M.Saparov, D.Bozorova, Z.Mirxoliqov, T.O‘rinov, T.Xo‘jamberdiyev, S.Usmonov, M.Bo‘ronov, D.Abdurahmonov, R.Safarova, Z.Mirahmedova, A.Husanov kabilarning tadqiqot natijalari ahamiyatlidir.

Yuqorida muhokamaga tortilgan masalalar tilning boy leksik qatlamini ifodalabgina qolmay, balki uning ifoda kuchi va keng nutqiy imkoniyatlarini ochib berishga, xizmat qiladi. Farqlovchi va birlashtiruvchi semalar leksemalarning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydi, leksik tizimni doimiy rivojlanishda saqlaydi. Tadqiqot ishining ijtimoiy, ilmiy-amaliy ahamiyati va dolzarbligi ham shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985.
2. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
3. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1960.
4. Mengliyev B. Tilshunoslik asoslari. . – Т.:”Dimal”, 2025 у.
5. Deese J. The structure of associations in language and thought
6. Karaulov Y. N., “Assotsiativ semantika va til tadqiqotlari”. – Moskva: 1998. – 136 b.
7. Karaulov Y.N., “Rus tilining assotsiativ leksikasi”. – Moskva: 1981.– 218 b.
8. Postovalova V. “Lingvokulturologiya va assotsiativ semantika”. 2001. – 266b.
9. Russkiy Assotsiativ Leksikon”. Moskva: 2002.
10. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик Назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 218 б.
11. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari (“Lingvistika” yo‘nalishidagi magistrilar uchun o‘quv qo‘llanma). – Andijon: 2006. – 316 b.